



Bilimlar bellashuvi – 2014

XUSHXABAR

Kuni kecha Gretsiyaning Kavala shahridan ajoyib xushxabar oldik.



BILIM – KELAJAKKA ELTUUVCHI YO‘L

4-5-betlar

AKA-UKA SHAXMATCHILAR – JAHON CHEMPIONI

Maktab o'quvchilari o'rtasida rapid va blits yo'nalishlari bo'yicha o'tkazilgan jahon chempionatida aka-uka Javohir va Islombek Sindorovlar barcha raqiblarini ortda qoldirib, musobaqa g'oligligini qo'lga kiritdilar.


Shu o'rinda aytib o'tish kerakki, keyingi yillarda yurtimizda sportga qaratilayotgan yuksak e'tibor natijasida yosh avlod o'rtasida sportning shaxmat turi jadallik bilan ommalashib bormoqda. Buning natijasida shaxmatchilarimiz ko'plab xalqaro turnirlar, qit'a va jahon chempionatlarida muntazam ravishda sovrinli o'rinnlarni qo'lga kiritishmoqda.

Turnirning yetti yoshgacha bo'lgan rapid va blits musobaqalarida poytaxtimizdagi 305-maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyalanuvchisi Islombek Sindorov o'ziga bildirilgan ishonchni a'lo darajada oqladi va ikki karra jahon chempioni degan sharafli nomga sazovor bo'ldi.

To'qqiz yoshgacha bo'lgan shaxmatchilar o'rtasidagi bahslarda poytaxtimizdagi 300-umumta'lim maktabining 2-sinf o'quvchisi Javohir Sindorov birorta o'yinda mag'lubiyatga uchramadi va yakunda xuddi ukasi kabi jahon chempionligini qo'lga kiritdi. Biz Islombek va Javohirni ulkan muvaffaqiyatlari bilan qulaymiz.

Ishonamizki, sportchilarimiz bundan keyin ham nufuzli xalqaro musobaqalarda yuqori marralarni zabt etib, O'zbekiston chinakam iste'dodlar mamlakati ekanini butun dunyoga namoyon etishadi.

S. TURSINOV



«Sog'lom avlod uchun» xalqaro xayriya fondi bolalarning yozgi ta'til kunlarini mazmunli hamda qiziqarli tarzda tashkil etish maqsadida alohida chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqdi.

KO'HNA BUXOROGA SAYOHAT

Unga ko'ra, bu yilgi mavsumda Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilari va ijtimoiy himoyaga muhtoj oila farzandlari Samarqand viloyati, Samarqand tumanidagi «Oxaliq» oromgohi va Toshkent viloyati, Bo'stonliq tumanidagi «Konstruktor» oromgohlariga jalb etildi.

Ushbu xayrli ishlarni davom ettirish maqsadida, Fond yaqinda «O'zbekiston temiryo'llari» DATK hamda O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi bilan hamkorlikda Farg'ona, Toshkent viloyatlari va Toshkent shahridagi Mehribonlik uylari hamda Andijon va Sirdaryo viloyatlaridagi Bolalar shaharchalarining tarbiyalanuvchilari uchun ko'hna Buxoro shahriga sayohat tashkillashtirildi. Sayohat davomida bolajonlar Buxoro shahrining diqqatga sazovor joylari bilan yaqindan tanishdilar.



Bugungi kunda yoshlarimiz ta'lim, sport va san'at sohaslarida ulkan yutuqlarni qo'lga kiritib kelmoqdalar. O'g'ul-qizlarimizning ma'naviy olamini yanada boyitish yo'lidagi harakatlari esa uzluksiz davom etmoqda.

Kuni kecha poytaxtimizdagi Temuriylar tarixi davlat muzeyi majlislar zalida Xalqaro Amir Temur jamg'armasi, O'zbekiston «Milliy tiklanish» demokratik partiyasining Oliy Majlis Qonunchilik palatasidagi fraksiyasi, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi hamkorligida «Yurtimiz iftixorlari – yoshlar davrasida» shiori ostida «Bolalar ma'naviyatini shakllantirishda bolalar adabiyotining o'rni va roli» mavzusida davra suhbatini bo'lib o'tdi.

Muloqot chog'ida O'zbekiston xalq yozuvchisi Xudoyberdi To'xtaboyev poytaxt va viloyatlardagi umumta'lim maktablaridan taklif etilgan o'quvchilar

bilan bolalar adabiyotidagi yangiliklar borasida fikr almashdilar. Shuningdek, adib ayni kunda butun dunyo bolalari sevib o'qiyotgan asarlarining yozilish tarixi haqida gapirib berdilar.

Tarixiy asarlar muallifi, yozuvchi To'lqin Hayitovning ulug' ajdodlarimiz va ular merosining komil inson tarbiyasidagi ahamiyati haqidagi qimmatli fikrlari ko'pchilikda katta qiziqish uyg'otdi. Tadbirda ishtirok etgan o'quvchilar o'zlarini qiziqitirgan barcha savollarga artoflicha javob oldilar. Eng asosiysi, ijodkorlar bilan muloqot tufayli ularning ma'naviy olami yanada boyidi.

Yusuf ABDULLAYEV,
Mehrafro'z MUHAMMADIYEVA



YOZ REJALARI


Tengdoshlarim qatori men ham yozgi ta'tilni taassurotlarga boy, qiziqarli tarzda o'tkazishni reja qilganman.

Nihoyasiga yetgan o'quv mavsumi men uchun juda omadli bo'ldi. Sababi, o'ndan ortiq maqola va hikoyalarni sevimli gazetam «Tong yulduzi»da chop etildi. Undan tashqari fan olimpiadasida muvaffaqiyatli qatnashdim.

Ta'tilda «Bunyodkor» futbol klubi akademiyasida mashg'ulotlarga muntazam qatnashib, turli musobaqalarda o'z kuchimni sinamoqchiman, ingliz tili bilan jiddiy shug'ullanib, bilimimni boyitaman.

«Sog'lom bola yili»dagi ta'tilimiz har yilgidan-da maroqli o'tishiga ishonaman.

Xurshid RAHMON,
poytaxtimizning Hamza tumanidagi 145-umumta'lim maktabining 9-sinf o'quvchisi



Ta'til kunlarida mahalladagi dugonalarim bilan «Eng yaxshi jurnalist» tanlovini o'tkazamiz. Har birimiz biror mavzuda maqola yozib, o'zaro bellashamiz.

JURNALIST BO'LMOQCHIMAN



Oilaviy tadbirlarimizda ham she'r aytishni yaxshi ko'raman. Shu sababli, otanonam adabiyotga bo'lgan qiziqishimni ko'rib, meni qo'llab-quvvatlaydilar.

Gazeta-jurnallarda dolzarb mavzularni yoritayotgan, televideniya rang-barang ko'rsatuvlar tayyorlayotgan jurnalistlarga havasim keladi. Dildora Rustamova, Nodira Tursunova, Shuhrat Qayumov kabi ijodkorlarga o'xshagim keladi. Ammo bu kasb egalari zimmasida katta mas'uliyat borligini ham yaxshi bilaman. Sevimli gazetam ijodkorlarini kasb bayrami bilan tabriklayman.

Shohsanam SAYDULLAYEVA,
Toshkent shahar, Chilonzor tumanidagi 181-umumta'lim maktabi o'quvchisi

ENG ZAVQLI MASKAN

Yoz fasli kelishi bilan yurtimizdagi barcha oromgohlar minglab bolalarni o'z bag'riga chorladi. Ushbu maskanlarda o'tkazilayotgan tadbirlar, turli ijodiy uchrashuvlar yosh avlodning dunyog'arashini boyitishga, ularni har tomonlama kamol topishiga xizmat qilmoqda.

Bizning Qashqadaryo viloyati, Qarshi shahridagi 29-umumta'lim maktabimizda tashkil etilgan «Kamalak» nomli yozgi oromgohimiz ham 1-iyundan dam oluvchilarni o'z bag'riga chorladi. Cho'milish havzalari, sport maydonchasi, fan to'garaklari, zardo'zlik, chevarlik, ustachilik, mohir qo'llar, chet tili to'garaklarida o'quvchilar bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazmoqdalar.

Tarbiyachi va yetakchilar, sinf va to'garak rahbarlari boshchiligidagi bolalarning miriqib dam olishlari uchun ekskursiya va sayohatlar tashkil etilmoqda. Sport musobaqalarini o'tkazish, til o'rganish, kasb-hunar egallash ishlariga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Maktab qoshidagi yordamchi xo'jalikda yetishtirilgan poliz mahsulotlari, bilim maskani hovlisida g'arq pishgan mevalar shirin sharbatlarga aylanib bolajonlarga mazkur bo'lmoqda.



Maktab ma'muriyati tomonidan o'quvchilarning dam olish samaradorligini oshirish maqsadida hafta va kun rejasi ishlab chiqilgan. Ya'ni, dushanba – tadbirlar, seshanba – huquqiy madaniyat, chorshanba – tibbiy madaniyat, payshanba – kamolot, juma – ma'naviyat va orasta qizlar, shanba – til o'rganish va yakshanba – mehr kuni deb belgilandi. Mehr kunida dam oluvchilar kekka va mehnat faxriylari, yolg'iz va nogironlar holidan xabar olib, ularning og'irini yengil qilishga va uy ishlariga ko'maklashmoqda.

Yozgi oromgohda dam olib shodlanayotgan yoshlarning yuzko'zida quvonch va g'ayrat, izlanish va mehnatga ishtiyoq barq urmoqda.

Jamila TO'RAQULOVA,
Qarshi shahridagi 29-umumta'lim maktabi direktori

Aziz o'quvchilar, kuzatib borayotgandirsiz, Istiqloq yillarida mamlakatimiz ijtimoiy hayotining barcha jabhalarida bo'lgani kabi ommaviy axborot vositalari faoliyati samaradorligini oshirish borasida ham tub islohotlar amalga oshirib kelinyapti. Jurnalistlarning ijodiy faolligi va mahoratini oshirish, mashaqqatli va sharaflil mehnatlarini munosib baholash, ularga yuksak e'tibor va ehtirom ko'rsatish borasidagi ezgu ishlar ijodkor aka-opalaringizni yanada faolroq mehnat qilishga ruhlantiryapti. Bugungi kunda qo'lingizga yetib borayotgan sifatli, rangli gazeta va jurnallaringizning, televideniye va radio orqali namoyish etilayotgan ko'rsatuv va eshittirishlarning yanada qiziqarliroq, mazmunliroq chiqishiga intilishyapti.

Sizning orangizda ham ijod yo'lini tanlagan, jurnalistikaga ixlosmand o'g'il-qizlar ko'pligiga ishonamiz. Jurnalistning fikrlari

teran, dunyoqarashi keng, nafaqat qalami, balki zehni va mantiqliy tafakkuri ham o'tkir bo'lishi kerakligini yaxshi bilasiz. Shunday ekan, bugungi kunda sizlar uchun yaratilayotgan keng imkoniyatlardan unumli foydalanib, puxta bilim oling, til o'rganing, axborot texnologiyalari bilan «tillashing». Shundagina Yurtboshimiz orzulagandek, o'z mustaqil fikriga ega avlod bo'lib kamol topasiz.

Fursatdan foydalanib, sharaflil va mas'uliyatli kasb egalari bo'lgan jurnalistlarimizni yaqinlashib kelayotgan Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlari kuni bilan muborakbod etamiz. Shuningdek, ularning Siz bolajonlarga atalgan dil so'zlarini e'tiboringizga havola qilamiz.

KASB MAS'ULIYATI

ELNING SUYUKLI SOG'LOM BOLASI

Dilfuza SHOMALIKOVA, «G'uncha» jurnali Bosh muharriri:

– «Sog'lom bola yili» deb atalgan yilimiz aslida allaqachon sog'lom bola asriga aylanib ketgan!

Jismoniy sog'lom, aqlan barkamol bola kelajagi ta'minlandi: hamma narsa bola uchun, uning salomatligi, baxti, kamoli, ertasi uchun bunyod etildi.

Maktabga qadam qo'rgan o'g'il-qiz ko'p o'tmay ilm bahsiga chog'lanadi. Yaratilgan imkoniyat va ta'minotning mevasi bu.

Qarashlaringda yorug' umidlaring aksi havasni ortiradi: eling seni suygisi keladi, erkalatgisi keladi.

Sen – Sog'lom bola, osmonni qo'lingda tutging, shu yurtning boshingda ko'targing keladi. Niyatlaringdan osmon yulduzga to'ladi. Oy shu lalanadi, Quyosh nurlanadi.

Ulug' maqsadning qutlug' yo'lga tutashadi. O'zbekiston dovrug'ini dunyoga taratadigan yurt erkasi! Senga bu ishonch qutlug' bo'lsin!



Zahro HASANOVA, «Gulxan» jurnali Bosh muharriri:

– Respublika bolalarining adabiy-badiiy bezakli nashri «Gulxan» 85 yildirki, jurnallarni xizmatida. Uning bag'rida bir qancha mashhur ijodkorlar, jonkuyar, fidoyi qalamkashlar faoliyat yuritishgan. Har safar taniqli muharrirlarning tabarruk nomlarini bir-bir eslaganimda, ularga munosib bo'lishdek ulkan mas'uliyatni his qilaman.



BAYRAM ARAFASIDA

«Gulxan» hamisha havaskor qalamkashlarning ijod minbari. Jurnal qoshida faoliyat yuritayotgan «Yosh qalamkash» to'garagi a'zolari, viloyatlarda qalam tebratayotgan yoshlarning she'r va hikoyalari «Nishona» sahifasida muntazam e'lon qilinadi. Zero, ular ijodini qo'llab-quvvatlashda, kerakli yo'l-yo'riq, maslahatlarni berishda «Gulxan» jurnali talabchan va mehribon ustoz.

Bugun ham «Gulxan» jurnalida katta tajribaga ega, bolalar ruhiyatini yaxshi biladigan «Shuhrat» medali sohibalari, Xalq ta'limi a'lochilari Muhabbat Hamidova, Vasila Po'latova ustozligida bir qancha yoshlar ish o'rganib, faoliyat yuritmoqdalar.

Fursatdan foydalanib, yurtingizdagi barcha jurnalist – ijodkorlarni kasb bayramlari bilan samimiy qutlayman. Ularga uzoq-umr, sihat-salomatlik, ijodlariga baraka tilayman.

ORZU KO'CHASIDAN BAXT MANZILIGA

Faxriddin HAYITOV, «Sog'lom avlod» gazetasi Bosh muharriri:

– Bu sohani tanlashingizga kim yoki nima sabab bo'lgan deb so'rashganida, doim tabiati go'zal qishlog'imizda kechgan bolaligim yodimga tushadi. 4-sinfda o'qib yurgan kezarimdan o'qib qishlog'imiz, Vatan haqida nimalarnidir yozgim kelaverardi. Maktabdagi tadbirlar, xonadonimizga har hafta kirib keladigan bolalar nashrlari, teleko'rsatuvlardan ta'sirlanib, men ham qog'oz qoralay boshladim. Qolaversa, ota-onam adabiyotga mehri baland insonlar bo'lib, o'zbek xalq ertaklari-yu matal, maqollaridan juda ko'p so'zlab berishardi.

Tunda oymomaga qarab qilgan olam-olam orzularim meni baxt manzili tomon yetakladi. Men poytaxtga kelib, oliy o'quv yurtida tahsil olib, mana bugun sevimli kasbimda faoliyat yuritmoqdaman. Gazetamiz sahifalari orqali farzandlarimizga sog'lom turmush tarzini targ'ib etar ekanmiz, ular ham doim ezgu orzu va ulkan maqsadlar bilan yashab, baxt manziliga yetishlarini istaymiz!



SHODON DAVRA ZAVQI

Saidaxon ZOKIROVA, «Oltin qalam» V milliy mukofoti sovrindori:

– O'zim «O'zbekiston» radiokanalining yosh muxbirlar guruhidan chiqqan ilk qaldirg'ochlardanman. Mana, 20 yildirki, bolalar davrasidaman. O'tgan yillar ichida ham jurnalist, ham ona sifatida yosh avlod bilan birga fikran ulg'ayayapman. Ularning Respublika va xalqaro fan olimpiadalari, respublikamizdagi 3 bosqichli sport musobaqalari va qator bellashuvlarda qo'lga kiritayotgan yutuqlarini ko'rib, ko'nglim osmon qadar o'sib boryapti.

Shu fursatdan foydalanib, 27-iyun – Matbuot va OAV xodimlari kuni bilan barcha hamkasblarimni samimiy qutlayman. Tilagim, ularni hech qachon bolalarcha ko'ngil beg'uborligi, hayrat va hayajon tark etmasin. Shundagina ularning yozganlari ko'ngillarga yetib boradi.



Ra'no MUHAMMEDOVA, «Mash'al» radiokanali katta muharriri:

– Bugun bizga havas qilayotgan kichik muxlislarimiz kabi bolaligidan jurnalist bo'lishni orzu qilganman. Hozirda «Bolalar dunyosi» eshittirishini tayyorlar

BOLALAR DUNYOSI JUDA MAROQLI

ekanman, doimo tanlagan kasbimdan faxrlanaman. Ayniqsa, bolalar uchun eshittirish tayyorlash juda maroqli va qiziqarli. Har kuni o'zbek va ingliz tillarida o'g'il-qizlarimizga taqdim

etayotgan dasturlarimiz bolalarning ma'nadan yetuk bo'lib ulg'ayishlariga xizmat qilayotgan bo'lsa, biz radio-




jurnalistlar bag'oyat mamnunmiz.

Farzandlarimizning iste'dodlari-yu qobiliyatlarini esa kichik shogirdlarimiz E'zoza qiz, Inoyatxon, Muhammadamin kabi eshittirishlarimiz boshlovchilari timsolida ko'rib, hamisha quvonamiz.

Kelajakda O'zbekiston yuksak darajada taraqqiy etgan iqtisodi bilangina emas, balki bilimdon, ma'naviy jihatdan yetuk farzandlari bilan ham jahonni qoyil qilishi lozim.

Islom KARIMOV

BILIM – KELAJAKKA ELTUVCHI YO'L



– Aziz o'quvchilar! Siz Bilimlar bellashuvining maktab, tuman va viloyat bosqichlarida g'olib o'quvchi, degan nomga sazovor bo'lib, to'rtinchi bosqichga qadar yetib keldingiz. Demak, sizning har biringiz g'olib, chunki respublika bosqichida ishtirok etishning o'zi g'oliblik.
Biroq, bellashuv natijasi biz uchun muhim. Sababi, Davlat ta'lim standartlarida belgilangan talablarning bajarilish holati tahlil qilinadi hamda

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirining ushbu so'zlari kuni kecha R. Qlier nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan musiqa akademik litseyida bo'lib o'tgan to'rt bosqichli Bilimlar bellashuvida yangradi.

Bilimlar bellashuvi 5–8-sinf o'quvchilari o'rtasida 16 ta fan bo'yicha tashkil etildi. Tanlovning birinchi – maktab bosqichida 2 mln. nafarga yaqin, ikkinchi – tuman bosqichida 360 mingga yaqin, uchinchi – viloyat bosqichida esa 7 mingdan ortiq

Abdulatif XUDOYBERDIYEV, Namangan viloyatidagi 14-umumta'lim maktabining 6-sinf o'quvchisi:

– Men Bilimlar bellashuvida o'zbek tili va adabiyoti fanidan o'z bilimlarimni sinovdan o'tkazdim. Tanlovning Respublika bosqichida qatnashishga musharraf bo'lganimdan juda mamnunman. Buning uchun, albatta, ustozlarimdan minnatdorman.

– Men Andijon viloyatidagi 57-umumta'lim maktabining 6-sinfida o'qiyman, – deydi **Gulsinoy ABDULAHATOVA**. – Bugungi bellashuvda qatnashish mening ulkan orzularimdan biri edi. Bu orzumga yetishganimdan xursandman.

– Bellashuvda qatnashish bahonasida talaygina do'stlar orttirdim, – deydi **Buxoro viloyati, Shofirkon tumanidagi 4-umumta'lim maktabining 8-sinf o'quvchisi Charos BAQOYEVA**. – Men ona tili va adabiyoti faniga qiziqaman. Bilimlar bellashuvi orqali bilim va ko'nikmalarimni yana bir bor sinovdan o'tkazdim va faxrli o'ringa sazovor bo'ldim. Ustozlarim, sinfdoshlarimning ishonchlarini

oqlaganimdan boshim ko'kka yetdi.

– Men Samarqand viloyati, Pastdarg'om tumanidagi 28-ixtisoslashtirilgan maktabning 7-sinfida o'qiyman, – deydi **Malik BAHRULLAYEV**. – Xorijiy tillarni o'rganishga juda qiziqaman. Maktabimizda ingliz tili darsi haftada besh kun o'qitiladi. Ustozimiz Manzura opa Qo'lyeva bizni xorij tillarini mukammal o'rganishimiz, fikrimizni bayon qila olishimiz uchun dars o'tishning yangicha usullarini qo'llaydilar. Bu esa bizga ushbu fanni yaxshi o'zlashtirishimizga yordam bermoqda.

– Yurtboshimizning «Chet tillarini o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarorining qabul qilinishi biz – yoshlarning oldimizga ulkan vazifa qo'ydi, – deydi **Andijon viloyati, Oltinko'l tumanidagi 1-umumta'lim maktabining 7-sinf o'quvchisi Shohijahon G'ULOMOV**. – Men kelajakda diplomat bo'lib, ajdodlarimizning ma'naviy merosini, yurtimiz tarixini butun dunyoga tanitmoqchiman.

– Bellashuvda fransuz tili bo'yicha ishtirok etdim, – deya so'z boshladi **Buxoro viloyati, G'ijduvon tumanidagi 30-umumta'lim maktabining 7-sinf o'quvchisi Oygul YUSUPOVA**. – Ustozim Gulandom opa Sultonova bilan bellashuvga qizg'in tayyorgarlik ko'rdik. Qiziqarli kechgan bellashuvda 2-o'ringa munosib deb topildim. Ustozimning mehnatlari besamar ketmadi. Bundan juda mamnunman. Ta'til kunlarini «Quyoshli» oromgohida o'tkazishimiz biz uchun yanada quvonchli bo'ldi. Chunki bu yerda dam olish bilan birga, bilimlarimizni mustahkamlab, tengdoshlarimiz bilan o'zaro fikr almashamiz.

ta'lim sifati ko'rsatkichlari orqali o'quv muassasalari, hududiy xalq ta'limi boshqaruvi idoralari faoliyati baholanib, respublikadagi 194 ta tuman, (shahar)larning reytingi aniqlanadi.

Demak, Bilimlar bellashuvining respublika bosqichi nafaqat siz uchun, balki biz – ustozlar uchun ham imtihondir, – dedi O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vaziri **Ulug'bek INOYATOV**.

Bilimdonlar ishtirok etdi. Ushbu bosqichda g'oliblikni qo'lga kiritgan 520 nafar o'quvchi Bilimlar bellashuvining respublika bosqichida ishtirok etdi va Toshkent viloyati, Bo'stonliq tumanidagi «Quyoshli» dam olish maskanida tashkil etilgan «Intellektual – rivojlantirish oromgohi» yo'llanmasini qo'lga kiritdi. Bilimlar bellashuvini o'tkazishdan maqsad, o'quvchilarning qobiliyat va iqtidorlarini quyi sinflardan boshlab aniqlash, maktablarda sog'lom raqobatni yaratish orqali o'quvchilarning bilim olishga bo'lgan qiziqishlarini rivojlantirishdan iborat.

HAKAMLAR SO'Z SO'RAYDI

Nargiza HAMIDOVA, Xalq ta'limi a'lochisi, «Eng yaxshi fan o'qituvchisi – 2014» respublika ko'rik-tanlovining 2-o'rin sohibchisi:

– Men Andijon shahridagi 31-umumta'lim maktabida ona tili va adabiyoti fanidan saboq beraman. Bir necha yildirki, viloyat, respublika tanlovlarida hakam sifatida qatnashib kelyapman.


Bu yilgi Bilimlar bellashuvida ham har yilgidek eng bilimdonlar saralangan. Tanlov adolat mezonlari asosida tashkil etilgani bilan ahamiyatlidir. Ushbu bellashuv iste'dodli va fidoyi bolalarimizga bilim cho'qqilarini zabt etishda qanot bo'lishiga ishonaman.



Muxtor PARDAYEV, Qashqadaryo viloyati, Mirishkor tumanidagi 22-umumta'lim maktabining oliy toifali o'qituvchisi:

– Bilimlar bellashuvining har bir ishtirokchisi mening eng sevimli gazetam «Tong yulduzi», deb aytishiga ishonaman. Birgina maktabimiz misolida aytadigan bo'lsam, o'quvchilarning ushbu gazetani sevib mutolaa qilishadi. Undagi iqtidorli, izlanuvchan tengdoshlariga havas qilishadi va ularga o'xshashga intilishadi.

Men bugungi yoshlarning mustaqil fikrlashi va yurtimizdagi ulkan o'zgarishlarga, bunyodkorlik ishlariga daxldorlik tuyg'usi bilan yashashlaridan zavqlanaman. Bugun bilim borasida bir-birlaridan kam bo'lmagan zukko o'g'il-qizlar o'z bilimini sinovdan o'tkazmoqda. Ularni saralash anchagina mushkul.



Dildora SOLIYEVA, Navoiy viloyati, Navbahor tumanidagi 17-umumta'lim maktabi o'qituvchisi:

– Bilimlar bellashuvining respublika bosqichida hakamlik qilayotganimdan faxrlanaman.

Kun kelib g'oliblik shohsupasiga ko'tarilgan o'quvchilar yurtimiz ravnaqi yo'lida ulkan ishlarni amalga oshirishiga ishonaman.



Ushbu sahifa O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi axborot xizmati bilan hamkorlikda tayyorlandi.

Sahifani o'z muxbirlarimiz tayyorlashdi

Yoshlikda olingan bilim, toshga o'yilgan naqsh kabidir.

O'z muxbirlarimiz olgan suratlar

EZGU ISHLAR BIZGA YOR



Barcha xursand, baxtiyor,
Ezgu ishlar bizga yor.
Qalblarda shukronalik,
Istiqloq kulgan diyori.

Vatan madhini kuylab,
El-yurt ishonchin o'ylab.
Onalar duo qilar,
Barcha quvonchin so'ylab.

O'tmishingni bilaman,
Senga ta'zim qilaman.
Ulug' o'zbekligimga,
Men ham shukur qilaman.

Jaloliddin ISLOMOV,
Navoiy viloyati, Xatirchi tumanidagi
II-umumta'lim maktabi o'quvchisi

TINCHLIK MISLI KABUTAR

Tinchlik misli kabutar,
Beradi bizga xabar.
Xalqim salomat bo'lsin,
Uylar mehmonga to'lsin.

Bepoyon O'zbekiston,
Seni tanidi jahon.
Serquyosh O'zbekiston,
Senga fido bo'lsin jon.

Bog'ingda o'ssin gullar,
Ochilsin bahri dillar.
Noming yashasin yillar,
Yillar osha asrlar.

Men ham sening qizingman,
Ortingdagi izingman.
She'rni yozdi E'zoza,
Doim bo'lg'in e'zoza.

E'zoza USMONXO'JAYEVA,
Toshkent shahar, Shayxontohur
tumanidagi 34-umumta'lim maktabining
6-«V» sinf o'quvchisi



Otabekning parloq olami

Sog'lom bo'lib ulg'aygin, bolam,
Gullar unsin yurgan yo'lingda.
Senga havas aylasin olam,
«Tong yulduzi» bo'lsin qo'lingda.

CHIP-CHIPJON

Yayra
SA'DULLAYEVA

haqida jayigina qissa



(Davomi. Boshi o'tgan sonlarda)

QAYDASAN. DO'MBOQVOY?

Do'mboqvoy birdan ko'rinmay qoldi, ovozi ham eshitilmadi. Uning quvna b yurishiga o'rganishgan ekanmi, hammayoq yutib yuboraman, deydi. Bu Chip-chipjonga, ayniqsa, sezila qoldi. U rosa kutdi. Kelavermagach, shunaqangi sog'inib ketdiki, hatto xavotirlana boshladi. Hamma ovozlarga bir-bir quloq solib chiqdi. Hech qaysisi Do'mboqvoynikiga o'xshamasdi. Chip-chipjon atrofga sinchiklab qaradi. Qoravoy yo'qligiga ishongach, pildirab ko'cha eshigi tomonga ketdi. Yo'lakdan tez o'tib ko'chaga mo'raladi. Quloq soldi. Do'mboqvoy qayga ketdiyin? Tinchlikmikini? U o'pkasi to'lib chiyillab yubordi. «Do'mboqjon, Do'mboqjon... Qaydasan?» Uning nolish to'la ovozi Chipor xolaning qulog'iga chalindi-yu, yuragi uvishdi, besaranjomligi oshdi. Qarasa, Chip-chipjon ko'rinmadi. Jimitvoy bilan ikkalasi eshikka yugurishdi. Yig'layotgan Chip-chipjonni ko'rib, darrov oldiga borishdi.

– Kim xafa qildi, bolajonim?

Chipor xolaning allalovchi ovozi ni eshitib, Chip-chipjonning o'pkasi

yanada to'lib ketdi. «Bolajonim» dedilarmi? U biroz jim qoldi.

– Do'mboqvoyni qidirapman.

– Bo'pti, birga qidiramiz.

Uchovi ovozlari yetganicha Do'mboqvoyni chaqira-chaqira tor ko'chaga chiqishdi. Chipor xola kutilmaganda shunaqangi ququladiki... Do'mboqvoy shu atrofda bo'lganda do'stlarining ovozi ni eshitmasdan qolmasdi. Aytganlaricha bo'ldi. Qayerdandir Do'mboqvoyning sog'inib-sog'inib ingrashi eshitildi. Avvaliga o'zlari ham ishonmay to'xtab qolishdi. Ovoz qo'shni hovlidan chiqardi. Chip-chipjon va Jimitvoy suyunganlaridan shoshib qolishdi. O'sha yoqqa yugurib ketayotib, hatto bir-birlariga urilib ketishdi. Chipor xolaning ham yuragi qinidan chiqqudek hupqirib bolalariga ergashdi. Do'mboqvoy hovli ichida edi. U yopiq eshikning tambasini buzgudek irillay-irillay rosa yugurdi. Eshik ochilmadi. Keyin yana ovoz eshitilmay qoldi. Chipor xola battar qo'rqib ketdi. Jo'jalar chiyillab yuborishdi. Bu vaqtda Do'mboqvoy do'stlari yoniga chiqish uchun tuynuk axtarardi.

Bir mahal ust-boshi tuproq Do'mboqvoy tillarini osiltirib, o'ynoqlab kelib qoldi. Do'stlarining atrofida parvona bo'lib, shataloq otdi.

Shu payt Chip-chipjonning qulog'iga

juda mayin, hazin chiyillash eshitildi. U Chipor xolaga yalt etib qaradi-yu, taqqa to'xtadi va ovoz kelgan tomonga quloq soldi. Ko'm-ko'k teraklar o'sib, soya tashlab turgan tomondan yana nolish eshitildi. Chipor xola va Do'mboqvoy – hamma-hammalari o'sha yoqqa qarashdi. Suvi shildir-shildir oqayotgan ariqchanning narigi yog'ida o'ziga o'xshash shiringina jo'jacha diydurab turar, ularga yolvorib-yolvorib qarardi. Ular shoshib qolishdi. Go'yo jo'jacha hozir ariqqa tushib ketadi-yu, toshqin oqizib ketadigandek hovliqanlaricha hammalari o'sha yoqqa yugurishdi.

– Qo'rqma, asalim, hozir...

Tugmachaoy avvaliga Chipor xolani o'z oyisi, yonidagilarni o'rtoqlari deb o'yladi. Yo'q, uning oyisi qora duxobadan chiroyli ko'yalak kiygan, usti yalt-yalt qiladi. Ham sal to'laroq... Demak, oyijonisi emas. Endi nima qiladi? «Oyijon», deb Tugmachaoy yig'lab yubordi.

– Yig'lama, asalim, hozir...

Oyisi ham asalim, deb erkalaridi. O'zidan avvalgi aka-opalari bir kechada yo'q bo'lib qolishgani uchun, oyisi Tugmachaoyga suyanib qolgan edi-ku, qidirib-qidirib kasal bo'lib qolmasa bo'lgani.

– Oyinga boraman, – dedi yig'lay-yig'lay Tugmachaoy. Uni ariqdan o'tkazib qo'yish kerak.

– Uying qayerda?

Tugmachaoy «Bilmayman», deb chiyillab qo'yd. Uni ariqdan bu yoqqa o'tkazish kerak. Ariq kichkinagina, suv kam bo'lsa ham oqizib ketmasin, deb qo'rqishdi. Shunda Do'mboqvoyning bilag'onligi tutib ketdi...

Shartta ariqqa tushib, ko'ndalang turib, yotib oldi. Endi Tugmachaoy «ko'pri»dan bemaol o'tishi mumkin edi.

(Davomi bor)

YOSHLIK BAHORINING BOYCHECHAKLARI



Bugun mening hayotimda eng quvonchli kun. Negaki, she'riy ijod namunalarim viloyatimizda chop etilgan «Yoshlik bahorining boychechaklari» nomli to'plamdan joy oldi. Bundan nafaqat men, balki butun oilamiz, ustozlarim, sinfdoshlarim ham xursand bo'lishdi.



Chirchiq shahridagi Madaniyat saroyida bo'lib o'tgan taqdimot marosimida so'zga chiqqan O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisi Muhammad Ali, O'zbekiston xalq shoirlari Mahmud Toir, Sirojiddin Sayyid hamda shoira Nazira-as-Salom va boshqalar biz, yosh ijodkorlarning ijodiga iliq fikrlar bildirishdi.

«Kamolot» YOI'ning Angren shahar Kengashi qoshidagi «Ilk qadam» to'garagi a'zolarining sahnadagi chiqishlari barchaga birdek manzur bo'ldi.

Muxlisa ABDOQODIROVA,
Toshkent viloyati, Angren shahridagi 4-umumta'lim maktabi o'quvchisi

BRAZILIYADA KATTA FUTBOL BAYRAMI

unda o'zbekistonlik FIFA referisi Ravshan Ermatov hakamlilik qilmoqda

Braziliya yashil maydonlarida davom etayotgan futbol bo'yicha jahon chempionati betakror uchrashuvlar, kutilmagan natijalar va chiroyli gollar bilan millionlab muxlislarning diqqat-e'tiborini o'ziga jalb etmoqda.

Sir emas, yurtimizda ham millionlar o'yinining ixlosmandlari ko'p va ular ham mundialni katta hayajon, qiziqish bilan kuzatib borishayotir.

jahon chempionati uchrashuvlarini boshqarib borayotgan hakamlarni baholab bormoqda. O'tgan uchrashuvlar natijalariga ko'ra,

qilishmoqda. Bunday nufuzli musobaqalarda yurtimiz terma jamoasiga muxlislik qilish undan-da zavqli, shunday emasmi?



Ravshan Ermatov 2003-yildan buyon FIFA shafe'ligidagi deyarli barcha musobaqalarda hakamlilik qilib kelmoqda. U Osiyoning «Eng yaxshi hakam» nominatsiyasida ketma-ket to'rt marotaba g'olib bo'lgan qit'imizdagi yagona futbol referisidir. Xalqaro futbol uyushmalari federatsiyasi uni 2011-yilda jahonning eng yaxshi hakami, deb e'tirof etdi.



Shveysariya – Ekvador o'yinini boshqargan hamyurtimiz eng yuqori ball bilan hakamlar orasida yetakchilik qilmoqda.

Braziliyada o'tkazilayotgan futbol bo'yicha jahon chempionati uchrashuvlarini boshqarishda Ravshan Ermatovga yana bir hamyurtimiz, Osiyo futbol konfederatsiyasi tomonidan 2011-yilda qit'imizning eng yaxshi qanot hakami, deb topilgan Abduhamidullo



Jahon chempionatining «E» guruhidan joy olgan Shveysariya va Ekvador (2:1) terma jamoalari o'rtasidagi bahsni boshqarib borgan o'zbekistonlik FIFA referisi Ravshan Ermatov worldreferee.com sayti tomonidan e'lon qilingan reytingda 7,6 ball bilan birinchi o'rinni egalladi.

Jahondagi futbol hakamlari faoliyatini tahlil qiladigan mazkur sayt ayni paytda Braziliyadagi

Rasulov va qirg'izistonlik Bahodir Qo'chqorov yordam bermoqda.

Xullas, 12-iyulga qadar ehtirosalar-u hayajonlarga berilib, mazza qilib futbol tomosha qilamiz. Axir futbol shunisi bilan qiziq-da. Bugun butun dunyo futbol ixlosmandlari kabi yurtimizning jazzi futbol muxlislari ham ushbu millionlar o'yinini zavq bilan tomosha

Yana to'rt yildan so'ng Rossiyada o'tkaziladigan XXI jahon chempionati bahslarida O'zbekiston milliy terma jamoasi o'z ishtiroki bilan yurtimizdagi futbol ishqibozlariga quvonch ulashishiga ishonamiz.

Jamshid KAMOL

MAHALLA PAHLAVONLARI

«Mahalla» xayriya jamoat fondi Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'limi va «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati Qoraqalpog'iston Respublikasi Kengashi hamkorligida Nukusda o'smir yigit va qizlar o'rtasida «Mahallamiz pahlavonlari» sport musobaqalarining Qoraqalpog'iston Respublikasi bosqichi bo'lib o'tdi.



Ushbu musobaqada yuz nafarga yaqin kurashchi uch vazn toifasida gilamga chiqdi.

– Yosh avlod qalbida halollik, bag'rikenglik, insonparvarlik kabi yuksak fazilatlarini qaror toptirishda milliy kurashning o'rni beqiyos, – deydi «Mahalla» xayriya jamoat fondi Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'limi boshlig'i o'rinbosari Azamat Qal-

boyev. – Yoshlarning yozgi dam olish kunlarini maroqli va mazmunli o'tkazish maqsadida tashkil etilgan mazkur musobaqaning shahar va tuman bosqichlarida 4 mingdan ziyod sportchi ishtirok etdi.

Qiziqarli bellashuvlarga boy bo'lgan musobaqada Nukus shahridan Axtam Valiberganov, Xo'jayli tumanidan Ruslan Qozoqboyev va Nukus tumanidan Zokir Zaitov, qizlar bahsida Nukus tumanidan Nazira Allamjarova, Go'zal Boltaboyeva va Indira Yelmuratova o'z vazn toifasida birinchi o'rinni egallashdi.

G'oliblar musobaqaning mamlakat bosqichida ishtirok etadi.

Navoiy shahrida 2003–2007-yillarda tug'ilgan qizlar o'rtasida badiiy gimnastika bo'yicha «Kamolot» g'unchalari musobaqasi bo'lib o'tdi.

«KAMOLOT» G'UNCHALARI» BAHSI

«Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati Navoiy viloyati Kengashi tashabbusi bilan O'zbekiston gimnastika federatsiyasi viloyat bo'limi, viloyat xalq ta'limi, madaniyat va sport ishlari boshqarmalari hamkorligida tashkil etilgan musobaqada 50 nafarga yaqin sportchi o'zaro bahslashdi.

Qiziqarli o'tgan musobaqada beshta yosh toifasi bo'yicha g'olib va sovrindorlar aniqlandi.

– Badiiy gimnastika bilan bir necha yildan buyon shug'ullanaman, – deydi 2003-yilda tug'ilgan qizlar o'rtasidagi musobaqa g'olibi, konimexlik Zarnigor Islomova.

Murabbiylarning o'g'itlari ortidan yaxshi natijalarni qo'lga kiritmoqdaman. Bugun g'olib bo'lganimdan mamnunman.

Endilikda xalqaro musobaqalarda muvaffaqiyatli ishtirok etib, yuqori o'rinlarni qo'lga kiritishni maqsad qilganman.

Shoh MUHAMMAD



«O'zbekiston» nashriyat-matbaa ijodiy uyida chop etilgan ommabop eng yangi adabiyotlar



IBRATLI IBORALAR

Taniqli yozuvchi va publitsist Ashurali Jo'rayevning «Sahifaga sig'magan satrlar» nomli mo'jazgina kitobchasida hayotning jazzi saboqlari, ibratli iboralari jamlangan.

Hayot haqida mushohada qilishga chorlovchi bir-biridan ajoyib bu fikrlarni o'qishga qiziqib qolgan bo'lsangiz, yozgi ta'til kunlaringizdan unumli foydalanib, bu kitobni mutolaa qilib chiqishni tavsiya etamiz. Quyida ushbu kitobdan olingan ayrim fikrlar bilan tanishasiz.

S AHIFAGA IG'MAGAN ATRLAR

Kutubxonachi – ma'naviy tabib.

Yolg'on har qanday ishonch va samimiyatning ildizini qirqadi.

Gapirayotgan odamning so'zini bo'lish odobsizlik, uning gapini tinglamaslik esa takabburlik.

Igna ajoyib narsa! Yurgan yo'lidan mustahkam izlar qoldiradi. O'sha mashaqqatli izlar evaziga biz yanada chiroyli bo'lib ketamiz.

Yaxshilik mardning belbog'iga o'xshaydi. Uni taqish hammaga ham nasib etavermaydi.

Dunyoda halol bo'lishdan ortiq halol mashg'ulot yo'q.

Haqiqat achchiqligi bilan qalampirga, shirinligi bilan asalga yaqin turadi.

Tilni tiyish uchun aqldan zanjir kerak.

Kitob – aql bilan qalbni bog'laydigan ma'naviy elchi.

Farzand – ota-onaning kelajagini ko'rsatadigan ko'zgu.

Yashalgan umrga shukrona aytish – baxt.

Topishmoq topilmaganda qiziq.

Ashurali JO'RAYEV

NON QADRI

(Voqeyi hikoya)

Nodirjon bilan Azimjon bolalikdan do'st. Lekin ularning fe'l-atvori bir-biridan farq qiladi. Azimjon kenja farzand bo'lgani uchun biroz qaysar. Nodirjon esa aksincha, boshqacharoq tarbiya olgan. Uning buvisi Mavluda momoning hikoyalari juda maroqli va ibratlidir. Buvijonisi bolalik davridagi ocharchilik, qiyinchiliklar to'g'risida so'zlaganda, doim bir gapni takrorlaydi:

– Bolajonim, sen nonni hech qachon isrof qilma, chunki non shunday mo'tabar ne'matki, u – dasturxon ko'rki, oila qut-barakasi. Hozir biz mustaqil, tinch-osoyishta, to'kin yurtida yashayapmiz. Bolam, non xalq farovonligi belgisidir.

Bir kuni Azimjon qo'lida bir burda non yeb, ko'chada o'ynayotgan edi. Qorni to'ygach, qo'lidagi nonni keraksiz buyumdek bir chetga uloqtirib yubordi. Nodirjon buni ko'rib, seskanib ketdi:

– O'rtoq, qo'lingdagi tosh yoki kesak emas-ku. Nonni isrof qilish yomon odat. Buvim doim, nonni uvol qilish katta gunoh, deydlar. Yaxshi



Jabonga BADAJOV chizgan rasmi

insonlar bu ne'matning uvog'ini ham ko'zga surtib e'zozlaydi. Uning ushug'i ham oltindan qimmat, – dedi xafa bo'lib.

Shunda Azimjon uloqtirgan nonini darhol qo'lga olib, ko'ziga surtdi va qilmishidan pushaymon bo'ldi.

Donoxon BAXTIYOROVA,

O'zMU qoshidagi 2-akademik litsey o'quvchisi

Ona zamin ne'matlari

Aziz bolajonlar! Bugun sizlarga malina haqida ma'lumot beramiz. Uning asl vatani Osiyo hisoblanadi.

Malinaning tarkibida terini taranglashtiruvchi vitaminlar mavjud. Shuningdek, uning tarkibida folat kislotasi bo'lganligi bois, jazirama yoz hamda qishning sovuq



SHIFOBAXSH MALINA

kunlarida ham malinali choy kishiga quvvat bag'ishlaydi. Ayniqsa, shamollaganda, tomoq og'rig'ida issiqqina malinali choy ichish tavsiya qilinadi. Malina mevasida A, B₂, C, E, PP vitaminlari mavjud. Undan tayyorlangan sharbat va murabbo

ham barchaga xush yoqadi. 2 osh qoshiq meva, 2 stakan qaynagan suvni termosga solib, 2 soatga damlab qo'ying. Tayyor damlamadan yarim stakandan kuniga 4 mahal ichib tursangiz, foydasini sezasiz. Muzlatgichda saqlangan malina ham o'z ko'rinishi va iforini yo'qotmaydi.

Manzura UBAYDULLAYEVA

Dunyoda otadek mehribon, g'amxo'r inson bo'lmasa kerak. Mening dadam ham juda oqko'ngil inson. Yaqinda dadajonimning tavallud kunlarini nishonlaymiz. Men sevimli gazetam orqali ularni tug'ilgan kunlari bilan muborakbod etaman va quyidagi dil so'zlarimni izhor etaman:

DADAJONIMNI QUSLAYMAN!

«Dadajon, Sizga uzoq umr, baxt,

omad, ishlaringizda rivoj va biz uchun eng keraklisi – salomat bo'lishingizni tilayman. Men sizdek insonning farzand ekanligimdan faxrlanaman. Yaxshi o'qishga, ishonchingizni oqlashga va'da beraman».

Qizingiz Dildora MAHMUDOVA, Toshkent shahar, Hamza tumanidagi 244-umumta'lim maktabining 7-sinf o'quvchisi

BO'SH O'TIRMA, BOSH QOTIR!

SUDOKU

Qadri o'quvchilar, quyidagi sudokuni yechish unchalik murakkab emas. Buning uchun 3x3 ajratilgan 9 ta kataklarga 1 dan 9 gacha bo'lgan sonlarni yozib chiqing. Biroq har bir raqam qatorda faqat bir marta yozilishi shart.

BONU tuzdi

	4	2	5	6	7		
9	6	7	1	3		4	2
5	2	8		7	9	1	6
6		5	3		2	9	7
	8	9	5	1		3	
	7	2			4		5
7	9	1	6	2		5	4
8		4	7	6	1	2	9
2	3			4	5	8	7

TOPISHMOQ

Eng yaqin do'sting, Aytar kam-ko'sting. Har hafta sahar, Yetkazar xabar. – Oching yuzimni, Aytay so'zimni, – Deb keladi u. Topish qiyin-ku, Deb aytmang, erta, Javob oson – bu...



E'zozta MUHAMMEDOVA, poytaxtimizning Uchtepa tumanidagi 193-umumta'lim maktabi o'quvchisi



Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi, O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, «KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashi, «SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga qarashli bo'lmagan xalqaro xayriya fondi.

Bosh muharrir Feruza ADILOVA

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 0208-raqam bilan 2007-yil 2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.

TAHRIR HAY'ATI: Omonulla YUNUSOV, Abdug'ani XOLBEKOV, Bahodir G'ANIYEV, Svetlana INOMOVA, Murtazo SULTONOV, Zoir ISAJONOV, Feruza JALILOVA, Sa'dullo TURSINOV (Bosh muharrir o'rinbosari), Feruz MATYOQUBOV (mas'ul kotib), Sobitxon TURG'UNOV, Zikrilla TESHABOYEV

Navbatchi muharrir Dilorom HOTAMOVA **Rassom** Feruzbek KAMOL o'gli

Manzillimiz: Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi, 30-uy. Indeks: 100129. Obuna indeksi: 198. e-mail: info@tongyulduzi.uz www.tongyulduzi.uz

Tel./faks: 244-63-08 Tel./faks: (99871) 244-38-10

«O'zbekiston» NMIUda chop etildi. Tahririyatga kelgan barcha qo'lyozmalar tahrir qilinadi, mualliflarga qaytarilmaydi. Haftaning dushanba kuni chiqadi. Shakli A-3, 2 bosma taboq. ISSN 2010-6092 Adadi – 51210 Buyurtma – S 224